

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


Dastlabki ma'lumot
2024-yil yanvar-fevral



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 61-222-67-45

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024-yil 1-mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **2 856** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **83** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 773** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-fevral oylarida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi **1676,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **106,6** % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **50,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **69,4** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **1626,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **108,4**%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **199,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **118,9** %) tashkil etdi.

| | Jami, mlrd. so'm | 2023-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda |
|--|---------------------|--|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 1 676,6 | 106,6 |
| Nukus shahri | 356,1 | 106,9 |
| tumanlar: | - | |
| Amudaryo | 143,1 | 106,6 |
| Beruniy | 113,5 | 106,0 |
| Bo'zatov | 18,6 | 106,1 |
| Qorao'zak | 71,9 | 106,8 |
| Kegeyli | 45,7 | 106,3 |
| Qo'ng'iro't | 129,4 | 107,1 |
| Qonliko'l | 61,9 | 107,8 |
| Mo'ynoq | 17,2 | 107,5 |
| Nukus | 49,6 | 106,6 |
| Taxiatosh | 76,3 | 101,3 |
| Taxtako'pir | 51,7 | 106,0 |
| To'rtko'l | 190,1 | 106,3 |
| Xo'jayli | 140,4 | 107,6 |
| Chimboy | 79,3 | 106,9 |
| Shumanay | 35,1 | 107,3 |
| Ellikqal'a | 96,8 | 107,7 |

2024-yilning yanvar-fevral oylarida 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan respublikaning Ellikqal'a (**107,7%**), Xo'jayli (**107,6%**), Shumanay (**107,3%**) va Qo'ng'iro't (**107,1%**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Ulushi, foizda




Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Nukus shahri 21,2 % bilan 356,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Mo'ynoq tumani 1,0 % bilan 17,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-fevral oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **1 626,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **8,4 %** ga oshdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **97,0 %** ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **69,4 %** ni va **50,4** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **3,0 %** ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qorao'zak (99,7 %), Nukus (99,8 %) va Qonliko'l (100,0 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 3,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush Taxiato'sh (17,7 %), Beruniy (4,6 %), Nukus shahri (3,6%) va To'rtko'l (3,4 %) tumanlarida kuzatildi.

3,0%


97,0%

 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma’lumot, *ming so‘mda*




2024-yilning yanvar-fevral oylari holatiga o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **842,8** ming. so‘mni (2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **105,1** %) tashkil etdi.

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Taxtako‘pir (1 328,3 ming. so‘m), Qorao‘zak (1 323,9 ming. so‘m) va Qonliko‘l (1 159,8 ming. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024-yil yanvar-fevral), foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

| | Jami, mlrd. so'm | 2023-yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda |
|--------------------------------------|---------------------------------|--|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 126,3 | 116,0 |
| Nukus shahri | 20,1 | 133,6 |
| tumanlar: | | |
| Amudaryo | 11,5 | 132,2 |
| Beruniy | 11,7 | 110,0 |
| Bo'zatov | 3,4 | 160,6 |
| Qorao'zak | 4,6 | 120,5 |
| Kegeyli | 4,3 | 133,7 |
| Qo'ng'iro't | 10,8 | 128,5 |
| Qonliko'l | 4,0 | 61,2 |
| Mo'ynoq | 2,2 | 179,0 |
| Nukus | 5,3 | 73,2 |
| Taxiatosh | 7,9 | 352,3 |
| Taxtako'pir | 4,6 | 90,8 |
| To'rtko'l | 14,1 | 75,1 |
| Xo'jayli | 7,2 | 140,1 |
| Chimboy | 6,7 | 114,3 |
| Shumanay | 3,4 | 129,6 |
| Ellikqal'a | 1,8 | 82,3 |

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;


– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari

(2024- yil yanvar-fevral)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024-yil yanvar-fevral)



Respublika bo'yicha 2024-yilning yanvar-fevral oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **199,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **118,9%** ni tashkil etdi. Sh jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **126,3** mlrd. so'mni (**116,0 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **72,9** mlrd so'mni tashkil etdi (**124,4%**).

2024-yilning yanvar-fevral oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **126,3** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**47,8** mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

| | | |
|--|---|--|
| <p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>47,8 mlrd. so'm</p>  <p>37,8 %</p> | <p>Non va non mahsulotlari</p> <p>9,8 mlrd. so'm</p>  <p>7,8 %</p> | <p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>23,7 mlrd. so'm</p>  <p>18,8 %</p> |
| <p>Tovuq go'shti</p> <p>7,6 mlrd. so'm</p>  <p>6,0 %</p> | <p>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>4,8 mlrd. so'm</p>  <p>3,8 %</p> | <p>Tuxum</p> <p>8,0 mlrd. so'm</p>  <p>6,3 %</p> |
| <p>Ziravorlar</p> <p>4,4 mlrd. so'm</p>  <p>3,5 %</p> | <p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>7,3 mlrd. so'm</p>  <p>5,8 %</p> | <p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>5,0 mlrd. so'm</p>  <p>4,0%</p> |
| <p>Tuzlamalar</p> <p>4,9 mlrd. so'm</p>  <p>3,9%</p> | <p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>3,0 mlrd. so'm</p>  <p>2,4 %</p> | <p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>- mlrd. so'm</p> <p>- %</p> |

2024-yilning yanvar-fevral oylarida, respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **72,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **57,9** mlrd.so'm, qo'y va echkilar – **12,8** mlrd. so'mni, otlar – **1,6** mlrd. so'mni, parrandalar – **0,6** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

| | | |
|---|---|--|
| 2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar | 1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar | 1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar |
| 20,8 mlrd. so'm | 18,2 mlrd. so'm | 18,9 mlrd. so'm |
|  28,5% |  25 % |  25,9 % |

| | | |
|--|--|---|
| Qo'ylar | Otlar | Echkilar |
| 8,1 mlrd. so'm | 1,6 mlrd. so'm | 4,7 mlrd. so'm |
|  11,1 % |  2,2 % |  6,4 % |

| | | |
|---|--|--|
| Kurka, o'rdak, g'oz | Tovuqlar | Quyionlar |
| 0,4 mlrd. so'm | 0,2 mlrd. so'm | - mlrd. so'm |
|  0,5 % |  0,3 % |  -% |

| |
|---|
| Qushlar |
| - mlrd. so'm |
|  -% |



UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024-yil 1-mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 052 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 051 tani tashkil qildi.

| | Jami mlrd. so'm | 2023-yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda |
|--------------------------------------|--------------------|---|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 51,9 | 107,3 |
| Nukus shahri | 20,5 | 107,6 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Amudaryo | 2,4 | 106,2 |
| Beruniy | 1,5 | 106,0 |
| Bo'zatov | 0,1 | 106,7 |
| Qorao'zak | 1,4 | 106,5 |
| Kegeyli | 0,6 | 106,2 |
| Qo'ng'iro't | 13,0 | 107,4 |
| Qonli'ko'l | 0,6 | 106,4 |
| Mo'ynoq | 0,2 | 108,7 |
| Nukus | 0,5 | 107,4 |
| Taxiatosh | 1,3 | 107,7 |
| Taxtako'pir | 0,3 | 106,6 |
| To'rtko'l | 3,4 | 106,9 |
| Xo'jayli | 3,0 | 106,8 |
| Chimboy | 1,4 | 107,1 |
| Shumanay | 0,2 | 106,8 |
| Ellikqal'a | 1,3 | 108,2 |

2024-yilning yanvar-fevral oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **51,9** mlrd. so'mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan **107,3** % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **99,9%** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

| | Hajmi, mlrd. so'm | Ulushi, foizda |
|--|------------------------------|---------------------------|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 295,7 | 100,0 |
| Nukus shahri | 185,8 | 62,8 |
| tumanlar: | | |
| Amudaryo | 4,2 | 1,4 |
| Beruniy | 66,6 | 22,5 |
| Bo'zatov | 0,2 | 0,1 |
| Qorao'zak | 0,2 | 0,1 |
| Kegeyli | 29,4 | 10,0 |
| Qo'ng'iro't | 0,4 | 0,1 |
| Qonliko'l | 0,2 | 0,1 |
| Mo'ynoq | 0,2 | 0,1 |
| Nukus | - | - |
| Taxiatosh | 0,8 | 0,3 |
| Taxtako'pir | 0,1 | 0,0 |
| To'rtko'l | 3,1 | 1,1 |
| Xo'jayli | 0,7 | 0,2 |
| Chimboy | 1,8 | 0,6 |
| Shumanay | - | - |
| Ellikqal'a | 1,9 | 0,6 |


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Nukus shahri (**185,8** mlrd. so'm), Beruniy (**66,6** mlrd. so'm) va Kegeyli (**29,4** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)



2024-yilning yanvar-fevral oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) **295,7** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **134,4** % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **105,3** mlrd. so'm (o'sish sur'ati – **114,2** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – **190,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **149,0** %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Respublika bo‘yicha 2024-yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **532,0** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **9,5** % ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **483,3** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **108,1%** ga to‘g‘ri keldi. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **90,8** % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024-yil 1-mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 1 012 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 007 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Nukus shahrida (117,4 %) va Taxiatoş tumanida (67,3%) kuzatildi

| | Jami mlrd. so'm | 2023-yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda |
|--|--------------------|---|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 532,0 | 109,5 |
| Nukus shahri | 247,0 | 105,1 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Amudaryo | 15,6 | 100,0 |
| Beruniy | 32,8 | 119,4 |
| Bo'zatov | 0,5 | 101,6 |
| Qorao'zak | 7,1 | 102,4 |
| Kegeyli | 1,1 | 110,4 |
| Qo'ng'iro't | 23,8 | 103,5 |
| Qonliko'l | 30,2 | 349,2 |
| Mo'ynoq | 14,1 | 100,6 |
| Nukus | 14,2 | 100,9 |
| Taxiatoş | 53,4 | 109,7 |
| Taxtako'pir | 5,3 | 104,1 |
| To'rtko'l | 39,8 | 101,2 |
| Xo'jayli | 15,4 | 102,1 |
| Chimboy | 15,1 | 101,8 |
| Shumanay | 0,6 | 101,9 |
| Ellikqal'a | 16,1 | 101,4 |